

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVAT JAHON TLLARI UNIVERSITETI  
XALQARO JURNALISTIKA FAKULTETI  
AUDIOVIZUAL JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMUNIKATSIYA  
KAFEDRASI**

**AUDIOVIZUAL JURNALISTIKA  
(TELEJURNALISTIKA)**

**FANIDAN**

# **KURS ISHI**

**MAVZU: Televideniyeining madaniy va ma'rifiy  
vazifasi**

**Bajardi :** Xalqaro jurnalistika 3-bosqich,  
401-guruh talabasi Hasanjon OLIMOV

**Ilmiy rahbar:** f.f.n, Amrullo KARIMOV

**TOHIKEHT – 2015**

# **TELEVIDENIYENING MADANIY VA MA'RIFIY VAZIFASI**

## **REJA:**

### **I. KIRISH.**

### **II. ASOSIY QISM:**

**1. OAVda ma'naviyat va ma'rifat**

**2. Televideniyeining ma'rifiy vazifasi**

**3. Televideniyeining madaniy vazifasi**

### **III. XULOSA**

### **IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarorida *"Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy hujumlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatini shakillantirish asosiy vazifamizdir"*<sup>1</sup> – deb alohida ta'kidlab o'tilgan.

**Mavzuning dolzarbligi.** Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan turli tahdidlar, ma'naviy xurujlar avj olgan bugungi murakkab sharoitda, hushyorlik va ehtiyotkorlik zarurligini barchamiz angladik va his etmoqdamiz. Chunki "ommaviy madaniyat" ostida yoshlarni zaharlashga urunayotgan kuchlar har birimizni tashvishga solmoqda. Shuning uchun yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari tashkil etilib, ularning yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishini oldini olish choralarini ko'rish bugunning dolzarb vazifalaridandir. Yurtboshimiz **"Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"** asarida *"Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularni ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va ma'suliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tassavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir, inson har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit-hiz chuqur anglab olishini*

---

<sup>1</sup>Karimov I. A. "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qaroridan.(manba: lex.uz)

*istardim. Takror aytishga to'g'ri keladi ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada xushyorlikni yuqotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur*"<sup>2</sup>- deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, yoshlar ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa u shunchalik yengilmas kuchga aylanadi.

**Kurs ishidan ko'zlangan maqsad va vazifalar.** Yoshlarni yangicha tafakkur, sog'lom fikr yuritishi va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lib kamol topishida oila, mahalla, ta'lim muassasalari, televideniye, matbuot va keng jamoatchilikning o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma'naviyatni rivojlantirishga mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Aksincha, xalqimizning tabiati, yashash tarziga yot bo'lgan kommunistik mafkurani har qanday yo'llar va zo'ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqloqlarning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o'zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Sovet ittifoqi davrida boshimizdan o'tqazgan qiyinchiliklarimiz barchamizga ma'lum. Shu o'rinda sizga bir necha savol bilan murojaat qilmoqchiman.

- Mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?
- Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo'lida edi?
- Ka'ba deb qayerga sig'inar edik?
- Har tong "Assalom!.." degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg'onardik
- Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshbandlarning muqaddas xoklariga e'tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug' bobokalonlarimizning o'chmas nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?
- Milliy g'ururimiz, insoniylik sha'nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?

---

<sup>2</sup>"Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 13 bet.

- Xo'sh, o'zimiz-chi? O'zimiz o'zligimizni bilarmidik? Qanday mo'tabar zamin, uluq ajdodlarimizning o'lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?
- Aytinglar, o'sha kezlari O'zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan hisoblasharmidi?
- Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasini ekanidan qay birimiz xabardor edik?<sup>3</sup>
- Go'yo milliy iftixor bo'lmish paxta, haqiqatda milliy g'urur o'rniga bo'yinturuq bo'lib, xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta'na-malomatdan boshqa nima keltirardi?

So'raymiz desak savol ko'p, ammo javob yo'q. Istiqloлга erishganimizga shukronalar aytaman. Biz yoshlar mustabid tuzum davrini ko'rmaganmiz, ko'rmaylik ham.

**Kurs ishining yangiligi.** O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi Maxmudova X. R. "Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining roli" mavzusidagi maqolasida mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalari (OAV)lari jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida hamda yetakchi o'rin tutib borayotganligini, gazeta va jurnallar, radio va televideniye bugungi kunda yoshlar uchun o'ziga xos aloqa vositasi hamkorlik ko'zguisi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qilayotganligi, qolaversa, yoshlar fikrini shakllantirishda, milliy mafkuramizni yoshlar ongiga singdirishda katta ahamiyatga ega. Ammo aynan televideniyaning madaniy va ma'rifiy tarbiyasi haqida yozish hanuzgacha ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bilan birga hozirgi telekanallarimizdagi ma'rifiy ko'rsatuvlar hamda reklamalar haqida so'z bordi. Jamiyat ongiga ushbu tushunchalarni sigdirish, albatta, televideniye vazifasidir. Bu shubhasiz OAV xodimlari zimmasiga qator talablarni yuklaydi. Chunki, ochiq mafkuraviy kurashlar davri hisoblangan XXI asrda OAV xodimlari yoshlar uchun zararli har bir narsani kuchli tahdid ostiga oluvchi, kuzi ziyrak, qulog'i sergak, so'zi

---

<sup>3</sup>“ Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” T.: Ma'naviyat, 2008. - B.6.

o'tkir muayyan kuchga aylanishi zarur. Endilikda har bir OAV xodimi o'z oldiga men tayyorlagan ko'rsatuv qanday natija beryapti, auditoriya undan ma'naviy ozuqa olyaptimi kabi savollarni o'z-o'ziga qayta-qayta berishi lozim.

## 1. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT

Mamlakatimizni dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol tortirishga, ularni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga bog'liq.

Prezident I.A.Karimov yosh avlodda yuksak ma'naviy-axlohiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun ular orasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqotining samarasini oshirish zarurligini ta'kidlab, «**Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch**» nomli asarida shunday yozadi: «*Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatlarimizni har tomonlama puxta o'ylangan, tizimli ravishda tashkil etmasak tabiiyki, biz ko'zlagan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topa olmaymiz.*<sup>4</sup>

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atiga, bir so'z bilan aytganda insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir yetkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

OAV hayotda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga yoshlarni ongli munosabatini uyg'otuvchi, xolislik va haqqoniyat prinsiplariga tayanib faoliyat ko'rsatadi.

To'rtinchi hokimiyat hisoblangan OAV turli xil fikrlar rang-barang qarashlar va yondashuvlarga keng yo'l ochib beradi.

A.Sohibov "Ommaviy axborot vositalari ma'naviy-axloqiy tarbiya minbari" mavzusidagi maqolasida O'zbekiston televideniyesi orqali ulug'allomalar, mutaffakirlarning ijodiy faoliyati, jahon sivilizasiyasiga qo'shgan

---

<sup>4</sup> Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 107

buyuk hissalarini, mashhur ma'rifatparvarlarimizning odob-axloqqa oid qarashlari, ularning asarlaridan parchalarni muntazam ravishda berib borilayotganligi, shuningdek, o'zbek adiblari hamda chet el taraqqiyparvar yozuvchilarining asarlari asosida tayyorlangan spektakllarni namoyish qilayotganligi xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Prezident I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ushbu masalaga to'xtalib shunday yozadi: *"Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravo n va tajavuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib bo'ysindirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uning, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buni tasdig'ini uzoq va yaqin tarixdagi ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki, har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal hiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin kelajagimiz ajdodlardan qolgan meros boy ma'naviyatimizni, xalqimizning bunyodkor azmi shijoati, jamiyatimizdagi ahil-inoqlik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kabi hayotiy muhim masalalar bilan chambarchas bog'liq".<sup>5</sup>*

Milliy ma'naviyatimizga zid bo'gan teleko'rsatuv va reklamalarga murossasiz bo'lish burchimizdir. Ayniqsa, ayrim kabelli televideniyealar manfaat ortidan quvib namoyish etayotgan film va reklamalarda millat ma'naviyatini yemiruvchi "media verus" yotibdi. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiyadan iborat "emlash" ishlarini olib borish "virus o'chog'ini lokalizatsiya qilish ishlarini olib borish, kerak. Ekranda zo'r berib targ'ib va tashviq etilayotgan yangi yengil-yelpi turmush tarzi ko'pchilikni maqsad-mudaosiga aylanishi hech gap emas. Huzur-halovatga moyil odam esa qiyinchiliklarga bardoshsiz

---

<sup>5</sup> Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 10



bo'ladi. Siseron (Mark Tulet) ta'kidlashicha, ***“huzur va lazzatni oliy saodat deb biluvchi kishi sira ham nafsni tiyib, sabr-bardoshli bo'la olmaydi”***.

Televideniye omma o'rtasida radio va boshqa nashrlarga nisbatan ko'proq ishonch to'g'irishini sababi shundaki, u yolg'onni haqiqatga aylantirish bobida boshqa axborot vositalarida bo'lmagan alohida “salohiyat”ga ega. Ekran orqali havola etilayotgan yolg'on yashiqni ham tomoshabin aynan haqqoniyat deb qabul qiladi.

Axborot kommunikasion texnologiyalari keng rivojlangan hozirgi davrda xorijiy televideniye ko'rsatuvlari siyosiy, ma'naviy, axloqiy va ruhiy xavfsizlikka xatar soluvchi manba to'lib qolmoqda, televideniye esa obyektiv va subyektiv omillarga ko'ra, tahdid jihatdan boshqa ommaviy axborot vositalari-matbuot, radio, hattoki, internetga nisbatan birinchilikni qo'ldan bermay kelayotir.

Xorijiy telekanallar ko'rsatuvlarining salbiy ta'siri oqibatida aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatida ba'zi muammolar yuzaga kelayotganligi sir emas. Xususan, fitishizim – lash-lushparastlik va “moda”, zeb, bo'lmag'ur matolar ortidan quvish urf-odatga aylanib borayotgani kishini tashvishga soladi.

Ma'lumki, ota-ona farzandiga qalb qo'rini bag'ishlaydi, uning kamoli yo'lida bor-yo'g'ini ayamay sarflaydi, bu o'zbek xalqiga xos azaliy an'ana. Biroq, televideniye jodusiga asir bo'lganidan farzand istiqbolini esdan chiqarib qo'yayotgan “teletomoshabin” ota-onalar ham borligi tashvishlantiradi.

Xorijiy teleko'rsatuvlarning milliy ma'naviyatimizga, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sirini har tomonlama tadqiq etish, axborot mexanizmga suqilib kirib, ommani ongini chalg'itishga, buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilishga intilayotgan ko'rsatuvlarga qarshi qat'iy choralar ko'rish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqilishi joiz.

Yosh avlodni salbiy axborot vositalaridan muhofaza etishda matbuot, mahalla va oila hamkorligi muhim o'rin tutishi barobarida, ota-ona uyda ibrat

bo'lib buzg'unchi xorijiy ko'rsatuvlarni ko'rib o'tirsa, farzandida ham bunga rag'bat uyg'onishini ayni haqiqat.

Mahalla bolani yomon yo'ldan qaytarmasa, unda o'zidan-o'zi tafakkuri yuksalib qolmaydi-ku? Bunda kattalarning yoshlarga nisbatan jonkuyarligi, talabchanligi suv va havodek zarurdir.

Shuningdek, markaziy gazeta va jurnallar hamda mahalliy matbuotda bosilgan islom dinining ma'rifiy mohiyatini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni, mustaqillik yillarida keng quloch yoygan tadbirkorlik harakatini, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o'rin egallab borayotganligini targ'ibot-tashviqot qilishning birgina o'zi mamlakatimiz kelajagi buyuk ekanligiga yetarli darajada asos bo'ladi, desak xato bo'lmaydi.

Oynai jahon - televideniening o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish nihoyatda muhimdir. Negaki, u mamlakatimizda shiddat bilan o'sib, hayotga o'z ta'sirini kengaytirib chuqurlashtirib va o'z navbatida boyib, mukammallashib, tobora yangi-yangi farmatsiyalarga erishmoqda hamda turli-tuman imkoniyatlar ochilmoqda.

Televideniening kishilik jamiyatiga bunchalik tez, mustahkam va chuqur ildiz otib kirib borishinig sabablari nimalardan iborat:

Birinchidan, televidenie hamma yerda hoziru-nozir, ya'ni millatning milionlab xonadonlariga kirib borishga qodir.

Ikkinchidan, uning hamma boyligi, ya'ni tomosha ko'rsatish va keng ommaga tushunilishi.

Nihoyat, uchinchi, televideniya voqea hodisalarning aks etishi va ko'rish tomosha qilish imkoniyatlarining bir vaqtning o'zida kechishi.

Radio paydo bo'lishi bilan tovush, so'zni eshitish, ilg'ab olish imkoniyati o'zining kengligi amalga oshgan bo'lsa, televidenie kashf etilishi bilan tasvirni uzoqdan ko'ra bilish muammosi hal etildi. U teatr, kino, radio eshittirishning birmuncha muhim xususiyat va sifatlarining o'zida mujassamlashtirib, axborot tashviqot va estetik tarbiyaning mutlaqo o'ziga xos turlarini yuzaga keltirdi.

Televideniening ommaviy axborot vositalarining boshqa turlardan afzalligi shundan iboratki, u tomosha ko'rsatish bilan birga, o'z navbatida voqea va hodisalarning bir vaqtda va ishonchli ravishda aks ettirish imkoniyatiga ham egadir. U ijtimoiy va madaniy hayotda yuz beradigan voqeaning hodisalar, faktlar xususida ekran tili, tovush vositasi orqali hikoya qilinar ekan, gazeta va kinoga ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lgan radioga nisbatan ham tezkor hamda realdir.

Televideniening imkoniyatlari va vazifalari bu bilan cheklanmaydi. Uning juda muhim vazifalaridan biri xalqqa bilim va ma'rifat tarqatish manbai ham ekanligidir. Endilikda har bir inson faqat o'qib, yoki radiodan eshitib o'z bilim saviyasini oshirib boradi. Shuning bilan birga, mashhur fan va madaniyat namoyondalari bilan televidenie orqali bevosita muloqotda bo'ladi. Bu jihatdan oinai jahonning ahamiyati beqiyos. Uning san'at asarlarining, ayniqsa, teatr, musiqa, estrada, kino san'atini xalq o'rtasida ommalashtirish, targ'ibot-tashviqot qilishda eng asosiy vazifani bajaradi. Televidenie boshqa axborot vositalari ichida insoniyatga ma'naviy ozuqa beradigan va ularni bir-birlari bilan bog'laydigan, ish va kundalik hisobotlari bilan bog'lab turadigan muhim quroldir. Unig ijtimoiy vazifasi avvalo shunda.

Jurnalist televideniada shunchalik katta ta'sir kuchiga egaki, eng avvalo dasturni mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi qay darajada bo'lish uning ijod mahsuli, izlanishiga bog'liqdir. Shu bois tele-ijodkor tinmay izlanishi, tinmay mahoratini oshira borishi talab qilinadi.

## 2. TELEVIDENIYENING MA'RIFIY VAZIFASI

Televideniye bu insonning ong-u shuuriga eng kuchli ta'sir qiladigan vositalardan biridir. Shu boisdan, keling, endi televideniyaning ma'rifiy vazifasiga biroz to'xtalsak.

Ma'rifat – bilim va ko'nikmalar yig'indisi, insonning aqliy jihatdan yuksalishi, desak xato bo'maydi. Yurtboshimiz bu borada shunday fikrni ilgari suradilar: *“Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”*.<sup>6</sup>

O'zbekiston milliy teleradiokampaniyasi tomonidan namoyish qilinadigan har bir kanal ma'rifatni oshirishga xizmat qiladi, albatta. *“Ma'naviyat va ma'rifat”* kanali aynan auditoriya ma'naviyatini yuksal tirish uchun ochilgan deyishimiz mumkin. Bu kanalda efirga uzatiladigan har bir kursatuv tomoshabinga ma'naviy ta'sir qilish uchun xizmat qiladi. Mana bir misol: kanalda *“Imtihon”* ko'rsatuvi har kuni namoyish etiladi. *Unda bilim saviyasi kuchli, dunyoqarashi keng yoshlar o'zlarini imtihondan o'tkazishadi. Har oyda ma'lum bir fan bo'yicha o'tkaziladigan intellektual o'yinga talabalarning qiziqishi yuqori. Men ko'rsatuvning bitta sonini (9-may soat 9:10) boshdan oyoq kuzatdim. Unda yetti nafar litsey va kollejlarda ta'lim olayotgan o'g'il qizlar ko'rsatuv mehmoni bo'lishdi. Ular inglis tili bo'yicha berilgan barcha savollarga deyarli to'liq javob berishdi. Faqat ba'zilari bitta-*

---

<sup>6</sup> Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 4

*ikkita savolga noto'g'ri javob qaytarishdi. Komissiya a'zolari sifatida ingliz tili o'qituvchisi va psixolog kerakli ko'rsatmalarni berishdi. O'qituvchi iqtidorli o'quvchilarga ko'proq so'z boylikka ega bo'lishi, yangi marralarni zabt etish uchun etarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lish kerakligini uqtirsa, psixolog inson doimo bardam va qo'rqmas bo'lishi, qaror chiqarishga shoshilmasligi, qaddi-qomatini doimo tik bo'lishini va o'zida bo'lgan ishonch aslo so'nish kerak emasligini maslahat berdi. Bu kabi maslahatlar insonning manaviyatini yuksaltirishda va bilim ko'nikmalarini rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, hozirgi kunda yoshlarning bilim olishi va yetuk shaxs bo'lib yetishishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Televideniya ham ma'naviyatni ma'rifat targ'ib qiladigan maskanlardan biri desak, adashmagan bo'lamiz.*

E'tibor qaratsak, ayni paytda bolalar uchun **“Bolajon”** telekanali faoliyat olib bormoqda. Aynan ushbu kanalda har kuni bolalar uchun ingliz tili darsi o'tiladi. Bu bilan hali birinchi sinfda o'qiydigan yosh bolalarda ham tilga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi. Nafaqat bolalar, balki yoshlar va yoshi katta insonlar ham bu ko'rsatuvni qiziqish bilan kuzatib borishadi. Ingliz tili darsida tabiiylikdan qochgan holda har xil interfaol isullarda, o'yin tarzida dars o'tilishi hech kimni zeriktirib qo'ymaydi. Barcha bolalar qiziqish bilan ingliz tilini o'rganishadi. Qolaversa, “Bolajon” kanali orqali ko'rsatiladigan multfilmlar ham bola ma'naviy dunyosini oshirish uchun xizmat qiladi. Chunki multfilmlarning mazmuniga e'tibor qaratsak, yomonlik ustidan yaxshilikning g'alaba qilishi, mardlik, jasorat, vatanparvarlik, kattaga bo'lgan hurmat kabi insoniy fazilatarning aks topishi, bola psixologiyasiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Hozir zamon o'zgarib ketdi, deyishadi. Yo'q, zamon emas insoniyat o'zgardi. Masalan, oldin odamlar kerakli bilim va ko'nikmalarni kitob o'qib o'rganishardi. Hozir esa, hattoki ayrim talabalar ham kitob o'qimay qo'yishdi. Chunki kitobning o'rnini bosa oladigan, qaysidir ma'noda uning vazifasini bajaradigan boshqa elementlar paydo bo'la boshladi. Aynan shu elementlardan biri ommaviy axborot vositalaridir. Hayotimizda kundalik muammolar kundan

kunga ko'paymoqda. Odamlar esa kitob o'qishga ulgurishmayapti. Men sizga bir maslahat bermoqchiman. Kitob o'qishga vaqtingiz bo'lmasa yoki qiziqmasangiz, marhamat televizor ko'ring. U sizni zeriktirmaslik bilan birga ma'rifat ulashish vazifasini ham bajaradi. So'zimning isboti sifatida bir misol keltirmoqchiman. Barchamiz ikkinchi jahon urushi haqida ma'lumotga egamiz. Qachon boshlangan, qachon tugagan, kim sababchi bo'lgan, nima uchun urush boshlangan. Barchasini qisman bo'lsa ham bilamiz. Ammo mashhur razvetkachi Bahrom Ibrohimov haqida biror ma'lumotga egamizmi? Menincha, yo'q. Men "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan **"Yoshlar"** telekanali tomonidan tayyorlangan *"Daryo ortidagi topshiriq"* ko'rsaruvini kuzatib bordim. *Unda Gitlarning dunyoni bosib olish rejalari va urush harakatlari haqida so'z ketdi. Rostini aytsam, men eshitgan ma'lumotlar hech bir darslik kitobda yozilmagan edi. Qolaversa, fashistlarning O'rta Osiyo davlatlarini bosib olish uchun 3 front ochish rejasi bo'lganligi haqida ma'lumotlar berildi. Bahrom Ibrohimov esa ushbu frontning ochilishiga qarshilik qilgan va bunga erishgan ham. Aynan ushbu ma'lumotlarni shaxsan men televizor orqali bilib oldim. Chunki 12 yil o'qish davomida men bu inson haqida hech qanday ma'lumot eshitmagandim. Bu ham televideniyaning ma'rifiy vazifasi deyishimiz mumkin.*

Urush o'z nomi bilan urush. Ammo ming bor eshitgandan ko'ra bir bora ko'rgan afzal. Ushbu hujjatli filmdan so'ng ikkinchi jahon urushidan parcha ko'rsatildi. Menda esa ikkinchi jahon urushi xususida dunyoqarashim kengaydi.

**"Mahalla"** kanali orqali namoyish etiladigan *"Ko'ngildagi gaplar"* tokshousi aynan ma'rifiy ko'rsatuvlar sirasiga kiradi. Undagi muxlislar va auditoriya fikrlari, ko'ngildagi gaplarni izhor etishi oinai jahon qarshisida o'tirgan har bir kishini quvonch va qayg'uga soladi. Uning bir sonini tomosha qilgandan so'ng men ham aynan shu ko'rsatuvga ishtirok etish istagi uyg'ondi.

Dunyo haqida, uning qanday paydo bo'lganligi haqida, samoviy jismlar va sayyoralar haqida ma'lumotga egamisiz? Agar astronomiya va geografiya

fanlariga qiziqishingiz bo'lsa **“Madaniyat va ma'rifat”** telekanali orqali efirga uzatiladigan **“Olam”** hujjatli filmini tomosha qilishingiz mumkin. Unda dunyoning biz bilgan va bilmagan sir sinoatlari ochib beriladi. Ba'zida dunyoning naqadar qudratli ekanligiga, ba'zida esa tabiatning o'zi haqiqiy rassom ekanligiga yana bir marta amin bo'lamiz.

*Suv. Naqadar buyuk ne'mat, naqadar tanqis. Mutaxassislarning fikricha, sayyoramizdagi suv zaxiralaridan faqatgina 2,5% ichish uchun yaroqli ekan. Shundan 0,5% insoniyat o'z manfaati yo'lida foydalanmoqda. BMTning bayonotiga ko'ra, har bir kishining toza ichimlik suvga bo'lgan kundalik ehtiyojini 50 litr miqdorda belgilash maqsadga muvofiq ekan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda umumiy aholisi 2,1 mlrd. kishini tashkil etadigan 61 davlatda suv iste'moli bu me'yordan kam bo'lgan. 2050 yilga kelib jahon aholisining 45 foizi (ya'ni 4,2 mlrd kishi) o'z aholisini kuniga 50 litr suv bilan ta'minlay olmaydigan mamlakatga yashashiga to'g'ri kelar ekan.*

Men ushbu ma'lumotlarni **“Dialog”** ko'rsatuvidan bilib oldim. Sizga ham ushbu ma'lumotlar juda qiziq bo'lsa kerak. **“Madaniyat va ma'rifat”** kanaliga boqing, ma'rifatingiz oshadi.

Ma'naviyatni oshirish faqatgina **“Madaniyat va ma'rifat”** kanalining zimmasiga tushmaydi, balki bu vazifa butun OAV vazifasidir. **“Dunyo bo'ylab”** kanali orqali namoyish etilayotgan **“Samolardan ko'ringan zamin”** dasturi odamlarga ma'rifat ulashadigan dasturlardan biridir. Siz dunyodagi har bir davlat xususida har bir sonda xabardor bo'lasiz. Uning tarixi, rivojlanishi, davlat belgilari, siyosat arboblari va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar barchaga juda qiziqdir. Masalan, kuni kecha Yaponiya haqida ko'rsatuv tayyorlandi. Unda ushbu davlat haqida ma'lumotlar, uning hayotidagi yangiliklar, shaharlari, aholisi, dam olish oromgohlari-yu, oliy o'quv yurtlarigacha axborot berildi. Eng asosiysi aholisining 99% savodli ekan, texnika va texnologiya sohasida dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Bunga qanday erishgan ekan, albatta, ma'rifat ilm, va harakat bilan. Shu sabab muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'anievich

Kaimov *"Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning davlatning kuch-qudratidir"*<sup>7</sup> deb bekorga ta'kidlamagan edilar. Yana bir ma'ruzalarida yurtboshimiz shunday degan edilar: *"maqsadimiz har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nani boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir"*. Mana shunday imkoniyatlar hozir yaratildi. Barcha talaba yoshlar uchun ham, o'quvchi bolalar uchun ham o'qish va bilim olish shart-sharoitlari yaratib berildi va bu jarayon hali ham davom etmoqda.

Hozirgi kunda bolajonlarning zerikishga umuman vaqti yo'q. Chunki ertalab turib maktabga borishadi, u yerda darslar juda qiziqarli, hech bir bolaning norozi bo'lishga haqqi yo'q. Maktabdan qaytishda esa televizor qarshisi ularning jon-u dili. "Bolajon" telekanali ularni, hatto, tamaddi qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Nega deysizmi? Bu kanal orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarga rosti men ham qiziqqa boshladim. Undagi bolalar uchun tashkil etilgan dars o'yinlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Keling, ma'rifat ulashadigan shoulardan biri "Bravo English" haqida so'z yuritsak.

Bu ko'rsatuv bolalar uchun inglis tilini o'rgatadi. Ammo undagi o'qituvchi foydalanadigan noodatiy usullar barchaning e'tiborini tortdi. Qanday qilib deysizmi, hozir aytaman. Birinchi bo'lib o'qituvchi salom berib darsni boshladi va bugun oquvchilar bilan birga sabzavotlar mavzusini o'tishini aytdi. U o'zi bilan mahsulotlarning maketini ham olib kelgan ekan. Birma-bir uni bolalarga ko'rsatib sabzavotlarning inglis tilidagi tarjimasini aytdi. Bolalar esa ularni 5-6 marta takrorlashdi. Ularning esda qolishi uchun oqituvchi har xil o'yinlar uyushtirdi. Birinchi bolalar ko'zlarini yumishdi, oqituvchi esa sabzavotlardan birini yashirdi. Bolalar buni bilishmasdi, ular ko'zini ochib qaysi sabzavot yashiringanini topishlari kerak edi. Buni a'lo darajada uddalashdi. O'qituvchi tekshirish maqsadida bir bora hech narsa yashirmadi, bolalar esa shuni ham payqab qolishdi. Xullas, birinchi shart shu tariqa

---

<sup>7</sup>Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.24



yakunlandi. Ikkinchi shartda bolalar aylana bo'lib turushdi va oqituvchi har birini qo'liga bittadan sabzavotni berdi. Ular ushbu sabzavotlarni bir-birlariga uzatib, qabul qila boshlashdi. Bu xuddi stullarni atrofida yugurib musiqa tuguganda 4 stolga o'tirmoqchi bo'lgan 5 nafar bolani eslatadi. O'qituvchi to'xta deganda bolalar qo'llarida bo'lgan sabzavotning ingliz tilida atalishini aytishlari lozim bo'ladi. Eng oxirida aytgan o'quvchi esa o'yinni tark etadi. Shunday o'yinlar inglizcha so'zlar bolalarning xotirasida tez va oson qolishi uchun qo'l keladi.

### 3. TELEVIDENIYENING MADANIY VAZIFASI

*Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning o'nib-osib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.*<sup>8</sup>

Darhaqiqat, hayotimiz rivojlanib boroqda. Vatanimiz ham kundan-kunga go'zallashib dunyo taniydigan davlatlar qatoriga tilga olinyapti. Yoshlarimiz esa o'z bilim va tajribasi bilan dunyo hamjamiyatini lol qoldirib kelayotgani ayni haqiqat. Nega boshqa xalq vakillari bizning yoshlarimizga havas qiladi, bilasizmi? Chunki bizda madaniyat bor, katta bo'lgan hurmat, kichikka bo'lgan izzat barchalarimizning qon qonimizga singib ketgan. Bularning barchasi madaniyatga borib taqaladi.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan meqr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu, avvalo, insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muqimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, etim-esir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning madaniy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

Nega deganda, insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va madaniyatidan judo qilishga urinadi. Buning tasdiqini uzoq va yaqin tarixdagi ko'pko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning madaniyati uning

---

<sup>8</sup>Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – T.: Ma'naviyat, 2008. –(kirish so'z)

bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz qal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, hozirgi kunda madaniyatni yuksaltirish borasida samarali ishlar qilinayotgan ekan, bu masala bot-bot tilga olinayotgan ekan, televideniye bu borada qanday ishlarni amalga oshirmoqda? Umuman olganda ommaviy axborot vositalari madaniyatni yoshlar ongiga singdirishda qanday ta'sir kuchiga ega? Avvalo, shu xususda to'xtalsak.

Mamlakatimizda nima voqea hodisa sodir bo'lsa u, albatta, OAV orqali jamiyatga ko'rsatiladi. Aslida OAV ning asosiy vazifasi ham shu. Ammo yana bir tarafi borki, televideneye radio, matbuot va internetdan ko'ra inson psixologiyasini tezda o'zgartirib yuborar ekan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, matbuotdagi xabarlarni o'qigan o'quvchi uning 100% bo'lgan bo'lmaganligiga ishonmaydi. Radio tinglagan auditoriya ham xuddi shunday. Biroq televideniyada bordi-yu bir ma'lumotni noto'g'ri bersangiz, oinai jahon qarshisida o'tirgan barcha odamlar bunga ishonishadi. Chunki televideniyada tasvir va matn bir vazifani bajaradi, ya'ni axborot beradi. Ma'lumotlarni eshitib ikkilangan kishi tasvirni ko'rib "mana haqiqat ekan-ku" deydi o'ziga o'zi. Shu sabab ma'naviyatni tarqatishda ham, yoshlarning ongiga ma'naviy ta'sir ko'rsatishda ham radiodan emas, matbuotdan emas, balki televideniyedan foydalanishning sababi ham shu.

*Yaqinda bir madaniy rolikka ko'zim tushib qoldi. Unda kichkina bir bola otasi bilan bozordan chiqib ketishyotganda bola bir otaxonning bozordan og'ir paketni qiyinchilik bilan ko'tarib kelayotganini ko'radi. Shunda u yugurib borib o'sha kishining yukini olishga urinadi. Nima bo'layotganini tushunmagan ota borib o'g'liga "bolam, nima qilyapsan? Axir u bobongniki-ku" desa bola otasiga qarab "dada, ko'tarishib yubormaymizmi?" deydi.*

Ana madaniyat, ana odob. Nafaqat bolalar, balki kattalar ham ibrat oladigan lavha. Televideniyeining ustunlik tomoni ham shunda. O'rgatmaydi, faqat xulosa chiqarishni tomoshabinning o'ziga qoldiradi. Matbuot yozgani bilan siyqasi chiqqan mavzu deb hech kim qiziqmasligi mumkin, radioda

madaniyat haqida efir tayyorlasangiz ham odamlar qiziqishmaydi. Noodatiy holatda tayyorlangan lavha esa barchaga manzur bo'ladi. Televideniyaning madaniy vazifasi haqida fikr yuritayotgan ekanmiz, men o'z so'zimni "Mening yurtim" kanalida namoyish etilgan o'zbek filmi bilan isbotlamoqchiman.

*O'zbek kino milliy agentligi* buyurtmasiga asosan "Vatan" kinostudiyasida suratga olingan, hayotiy oqealarga asoslangan "**Gumrohlar**" filmi madaniyatimizni yuksaltiradigan filmlardan biridir. Hilol Nasimov rejissorligida suratga olingan kartinaning har bir lavhasi madaniyatimizni ko'rsatib beradi. Yigit ishga ketayotganda onasi "*Olloh madadkor bo'lsin, bolam*" deb duo qilishi fikrimizga misol bo'ladi. Tajribali iqtisodchilardan biri bo'lgan Ollayor (Samandar Hamroqulov) ning uyiga bosqinchilar bostirib kirishadi va xotinini, o'g'lini bog'lab qo'yishadi. Aslida ularning maqsadi o'g'rilik qilish emas, balki Olloyorni badnom qilish edi. Bularning bari rejalashtirilgan, diniy aqidaparastlar Olloyorni saflariga qo'shishni xohlashadi. Mana madaniyatsizlik. Birovni o'z domiga ilintirish uchun uning xotinidan foydalanish aql-farosati bor insonning ishi emas. Olloyor esa qo'ni-qo'shni oldida sharmanda bo'maylik deb hech qayerga murojaat qilmaydi. Yigit nima degan odam bo'ldim deb yurganida uning ishxonasiga bir kuni Robiya (Jamila G'ofurova) ismli qiz keladi. U Olloyordan ish o'rganish niyati borligini ma'lum qiladi, ikki tomon ham rozi bo'lishadi. Xullas sekin asta Robiya Ollayorni o'z izmiga sola boshlaydi. Shu o'rinda ekstrimistik guruh sardorining aytgan fikriga to'xtalsak: "*Arzimagan gap-so'zni deb oilasidan yuz o'g'irgan odamni bo'sindirish oson. Shuni bilib qo'yinglar*". Ushbu gap ma'naviy jihatdan yetuk bo'magan insonni oddiy bir holatda bo'sundirish mumkin deganidir. Chunki madaniyatsiz ma'naviyatsiz kishi komil inson emas. Prezidentimiz "***Kezi kelganda ilgari aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni, albatta, kimdir to'ldirishga***

*harakat qiladi*” deb aytgan edilar. Shunga binoan aqli past, ma’naviyatsiz odam birovga, albatta, qaram bo’ladi.

Turkiya davlatida o’z guruhini tuzgan Akbar va Qilich ismli kimsalar Olloyorni Ruqiya orqali Turkiyaga taklif qilishadi. Korxonani sanoat jihozlari bilan ta’minlayman deb va’da bergan Akbarbey Ollayorni o’zining buzuq ishlariga aralashtiradi. Akbarbey Qozoqiston, Tojikiston va Turkmaniston hududlaridagi jangarilarni qurol yaroq bilan ta’minlab O’zbekiston hududida to’ntarishni amalga oshirmoqchi bo’ladi. Uning aytgan gaplariga e’tibor bering: *bizning asosiy maqsadimiz xalq mafkurasi, ma’naviyati, milliy qadriyatini va urf-odatlarini poymol qilishga erishish. Ana shunda ularni poda kabi qayoqqa haydasang ketaveradi. Sovetlar etmish yil bu borada anchayin salobatli ishlarni amalga oshirgan edi. Yuzlab aqli qatlam egalarini qatl qilgan edi.*

Akbarbeyni bu gaplarini eshitib shunday xulosaga keladi kishi. O’z Vatanini qo’riqlash yo’lida jon beradiganlar ham bo’ladi, biroq boshqa davlatlarga borib o’z xalqi yostig’ini qonga belaydiganlar ham topiladi, oramizda. Ha, endi *“Ona yer gulni ham sassiq o’tni ham o’stiraveradi”* deb bekorga aytishmaydi. Shu sabab eng asosiy vazifa xalq ma’naviyatini yuksaltirishdir. Shunda hech kim noto’g’ri yo’llarga kirib qolmaydi.

Ustozim deganing sherfurush chiqsa,  
Sevganim deganing erfurush chiqsa,  
Sultonim deganing yerfurush chiqsa,  
Chidagin bolama, chidagin.

Donolar qorani oppoq desalar,  
Shoirilar haromni shu pok desalar,  
Qo’rqsalar dushmanni o’rtoq desalar,  
Chidagin bolama, chidagin.<sup>10</sup>

---

<sup>9</sup> Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 11

Insonning qalbiga ta'sir qiladigan ushbu she'ri Mirza Azizov o'qib bergan. Aslida o'zlari uchun dinni niqob qilib olib razil niyatlarini amalga oshirish niyatida bo'lgan g'alamizlarning odamlar qonini to'kishi gunoh emasmi?

Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzoqiga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy va madaniy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferentsiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi - AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.

Shu o'rinda ma'naviyat va madaniyatning yuksalishi bilan chambarchas boqliq bo'lgan muqaddas dinimiz haqida aloqida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman.

Yaqindagina **“O'zbekiston”** telekanali orqali **“Ziyo”** ko'rsatuvining navbatdagi sonini ko'rdim. Unda din, islom dini, uning qonun – qoidalari va arkonlari, uni hozirgi kunda noto'g'ri talqin etilayotgani xususida fikr bordi

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak fikr va qarashlar, haqiqat, insof va adolat to'qrisidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror

---

<sup>10</sup> odnoklassniki.ru. Bahrom Isroilov she'ri

qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini aloqida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, meqr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, meqr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi. Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyliги va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga etkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan boqliq. Va, albatta, xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Ollah marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi, deb o'ylayman.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan qimoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa OAV xodimlariga bo'lgan vazifani ikki chandon oshiradi.

Yaqinda *“Madaniyat va ma'rifat”* kanalida *“Baxshiyona”* musiqiy ko'rsatuvini kuzatib bordim. Unda baxshilarimiz tomonidan ijro etilgan xalq dostonlari menga o'zgacha ruh bag'ishladi. Milliy qadriyatlarimiz namunasi bo'lgan *“Alpomish”* dostonini tinglar ekanman, ota-bobolarimizdan meros qolgan ushbu dostonning o'tmishi ming yillarga borib taqaladi.

Shu ma'noda, xalq oqzaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish **“Alpomish”** dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shiqidir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning baqrikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan.

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rqonini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Bir paytlar, aniqroqi, o'tgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning ko'pgina namunalarini kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag'onga uchragan edi. O'sha og'ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha-qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot.

Chunki «Alpomish» dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga elkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda engib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota-bobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy - hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish etti yoshida o'n to'rt botmon birichdan - bronzadan



yasalgan yoydan o'q otib, «alp» degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani - hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning engilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'qlonlarimiz - bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

## XULOSA

Televidenie jamiyatda miliy ehtiyoj kasb etgan dolzarb muammolarni birlashtiradi. Turmush va butun hayotimiz davomida zarur bo'ladigan faolligimizni oshirish uchun xizmat qiladi, zeriktirmaydi. Dunyoqarashimizni kengaytiradi, xarakterimiz va odatimizni o'zgartirishga yordam beradi; e'tiborimizni dolzarb ijtimoiy muammolar muhokamasiga tortadi. Yana bir eng muhim jihatlari shundan iboratki, u nuqtai nazarimizni shakillantirishga xizmat qiladi. Ko'p millionli auditoriya bilan aloqa bog'laydi va bu aloqa ijtimoiy ongimizga ta'sir etib, davr bilan axloqiy his tuyg'uni uyg'otadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ijtimoiy minbar vazifasini o'tab, xalqqa hisobot berish, o'z siyosatini tushuntirish va nihoyat, o'z tarafdorlari safini kengaytirish hamda ularni zarur jihatlar tomon yo'naltirish imkonini beradi

Televidenie – bu matbuot, kino, radio singari ommaviy axborot vositalaridan biridir. Hozirgi kunda gazeta, radiopryomnik va televizor deyarli barcha xonadonlarda mavjuddir. Ularning yordami bilan insonlar yer kurrasining turli burchaklarida istiqomat qiluvchi insonlar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar. Bu nima uchun kerak ularga gazeta, radiopryomnik, televizorning xizmatlari nima sababdan zarur.<sup>11</sup>

Birinchiidan: Matbuot, kino, radio va televidenie jahon ko'zgusi. Ularning yordami tufayli insonlar o'z shahar va mamlakatlarida, shuningdek jahonda qanday yangiliklar sodir bo'layotganidan xabardor bo'ladilar. Davlat va hukumat siyosatini anglab, qabul qilingan qarorlarni bilib boradilar. San'at va qishloq xo'jaligi sohasida muvaffaqiyatlar, fan, adabiyotlar, san'at, sportdagi yangiliklardan bahramand bo'ladilar. Bugun ertaga va kelajakda ob-havo qanday bo'lishi xususida axborotlar oladilar.

Ikkinchiidan. Matbuot, kino, radio va televidenie millionlar minbari, har kuni odamlar oldida ko'plab muammolar, dolzarb masalalar paydo bo'ladi. Ularni hal etmoq uchun to'g'ri nuqtai nazar ishlab chiqmoq zarur. Buning uchun esa o'sha muammo va masalalarni aniq qilish, tekshirish, har tomonlama

---

<sup>11</sup> Masa-media tipologiyasi, texnikasi va iqtisodi” (ma’ruzalar matnidan)

o'rganish kerak bo'ladi. Gohida keng muhokamadan o'tkazmoq uchun tajribali odamlar mutaxassislarni jalb qilish zarurati tug'iladi. Bunda yana matbuot, kino, radio, televidenie yordamga keladi va kuchli ehtirosli publitsistika ish berib, o'sha dolzarb ijtimoiy masalalar va fiklarni omma hukmiga havola qiladi.

Uchinchidan: Yuqorida sanab o'tilgan publitsistik vositalar ayni vaqtda zarur hamdir. Zero kishilik jamiyati o'z taraqqiyot boshqichida shunchalik ko'p misli ko'rilmagan ilm va madaniyat boyligiga erishganini sanab o'tishning iloji yo'q. Bu jihatdan yana ommaviy axborot vositalariga murojaat etamiz. Ko'pgina ilmiy-ommabop maqolalar kitoblar, filmlar va ko'rsatuv eshittirishlar insonlarni jamiyat madaniy durdonalarini anglab olish imkonini beradi. Bularning barchasi ommaviy-ma'rifiy axborotlar orqali amalga oshadi.

To'rtinchidan: Matbuot, kino, radio va televidenie ommaviy san'atdir. Masalan: Shoir bilan bo'lgan uchrashuv kechasiga yoki spektaklga, kontsert kechasiga, rassom ko'rgazmasiga bog'liq, albatta. Matbuot, kino, radio va, xususan, televidenie esa san'at asarlarini millionlarga ko'rsatish imkonini beradi. Shu jihatdan olganda televidenie va boshqa ommaviy axborot vositalari odamlarning, ayniqsa, yosh avlodning estetik jihatdan tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan: Matbuot, radio, televidenie-bu oilaviy axborot, publitsistik, estetik tarbiya va hordiq chiqarish vositasi. Ularning ta'sir kuchi targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishda ham beqiyosdir.

Odamlar ommaviy axborot vositalarida berilgan xabarni yuqori baholaydilar. Matbuot va radioda berilgan xabar ma'lumot har dam biror shaxs kuzatuvining mahsulidir. Uning qanday darajada haqqoniyligi o'sha inson, shaxs nigohi naqadar o'tkirligi, xotira kuchi, biz uchun yaratilgan manzarasiga bog'liq. Kino va televideniening stili boshqacha. U voqeaning o'zi yarata olish imkoniyatlarini beradi. Bu hol, ayniqsa, televideniegga xosdir. U bilan voqelik o'rtasida hech qanday vositachi yo'qdek tasavvur hosil etadi. Bu hol esa ayni o'sha voqea hodisani ko'rsatish paytida vujudga keladi. Demak operator ham,

rejissor, muallif, komentator ham yuz berish mumkin bo'lgan hodisani tomoshabin bilan bir vaqtning o'zida ko'radi. Bir daqiqadan keyin nima sodir bo'lishini hech kim bilmaydi.

Shu boisdan televidenie millionlab odamlar ko'z o'ngida ommaviy axborot vositalari ichida eng ishonarlisidir. Uning bu qadar qadrlanadigan jihatlaridan yana biri ko'rsatuv ishtirokchilari bilan shaxsiy muloqot yuritish mavjudligidadir.

Matbuot kinoekran, radio yoki televidenie orqali chiqish ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Biroq, biror shaxs televidenie orqali chiqish qilganda, go'yo har qaysi tomoshabinga alohida murojaat etgandek tasavvur hosil bo'ladi. Bu holat murojaatning yana ham ta'sirchan, yana ham yaqin qilib ko'rsatadi.

Televideniening tomoshabin tomonidan bu qadar sevimli va qadrlanishi sabablaridan yana bir jihati- uning qulayligidir. Televizion ko'rsatuvlarni teleekran oldida mixlanib tomosha qilib o'tirish kinomatografiyaga ham taalluqlidir. Biroq odamlar kinoteatrda har kuni boravermaydilar. Televideniени esa deyarli har kuni tomosha qilishadi.

Televidenie eng ommabop, eng ishonchli, eng qulay ommaviy vosita ekan, demak u ma'lum vaqt o'tishi bilan boshqa barcha ommaviy axborot vositalari o'rnini egallab oladi. Ehtimol, televidenie matbuot provardida, kino va radio xizmatini yo'qqa chiqarar? Aslo bunday bo'lishi mumkin emas. Shuning uchunki, ular ham televidenieda yo'q sifatlarga egadir.

Xulosa shuki, televidenie san'atning boshqa turlari va axborotlarni ko'rishdan, odamlarni sovutmoqda deb o'ylash noto'g'ri bo'lar edi

Mana 1991 yilda mamlakatimizda istiqloq tantana qilib, emin erkin hayot kechirmoqdamiz. Jamiyatni ezguliklar, yaxshi narsalar mehnatsevar xalqimiz forovonligi yo'lida xizmat qilayotir. Adabiyot va san'at, barcha ommaviy axborot vositalari ham shunga qaratilgan. Televidenie va radio xizmatiga to'xtaladigan bo'lsak, ularning biron-bir vazifasi davlatimiz hamda hukumatimiz tomonidan izchil olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatimizni,

istiqlol va mustaqillik g'oyalarini keng omma o'rtasida targ'ib qilishdan, an'ana va qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz hamda boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimiz va ularning ilmiy meroslarni xalqimizga etkazishdan iboratdir. Ularning yana bir eng muhim xususiyatlaridan biri, aholini ma'naviy axloqiy estetik jihatdan tarbiyalashda o'tkir va ta'sirchan vosita ekanligidir.

Fikrimni Yurtboshimizning televideniye haqida aytgan so'zlari bilan tugatmoqchiman. *“Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatishda aynan televidenie zimmasiga juda mas'uliyatli vazifalar yuklatilayotgani ham bejiz emas. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va badiiy ijodiyotning murakkab uyg'unlashuvidan tarkib topgan televidenie o'zining audiovizual asosi, ta'sir kuchining ko'pqatlamliligi, hayotni nafaqat ko'rsatish, harakatda tasvirlash, tomoshabinlar auditoriyasi bilan muloqotga kirisha olish imkoniyatlari bilan ham eng ommaviy san'at turiga aylangan.*<sup>12</sup>

---

<sup>12</sup> Karimov I.A. Xalq qadrini anglash. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlangan // Ma'naviy yuksalish yo'lida– T. O'zbekiston, 1998. – B.5-9

## ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T.: O'zbekiston, 2011
4. Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin! “Turkiston” saroyi ochilishida so'zlagan nutq. 1993 yil 4-sentabr
5. Umirov S., Do'stmuhammedov X., Abduholiqov I., Jo'rayev X., Karimov A., Mo'minova F., Matyoqubov A. “Masa-media tipologiyasi, texnikasi va iqtisodi”. Toshkent 2010
6. Abduxoliqov I, Karimov A. Telejurnalistika asoslari (Ma'ruza matnlari) Toshkent 2005
7. Karimov A. Rekreativ chiqishlarning zamonaviy xususiyatlari, “Zamonaviy telejurnalistikaning taraqqiyot tendentsiyalari: mahorat, tajriba, ixtisoslashuv (ilmiy maqolalar to'plami)”. –T.:2015.
8. Mamadalieva Sh. Zamonaviy mass medianing yangi tendentsiyalari va dolzarb muammolari (ilmiy maqolalar to'plami). T.:2014.
9. Sohibov A. “Ommaviy axborot vositalari-ma'naviy-axlohiy tarbiya minbari” mavzusidagi maqolasi.
- 10.Shodiyev B F. ”Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ijtimoiy institutlar integrasiyasi” Magistrlik dissertatsiyasi Samarqand – 2012
11. O'zbek kino milliy agentligi. Hilol Nasimov “Gumrohlar” filmi “Vatan” kinostudiyasi 2014
12. “O'zbekiston”, “Madaniyat va ma'rifat”, “Bolajon”, “Yoshlar”, “Dunyo bo'ylab”, “Mening yurtim” telekanallari
13. “Sado” gazetasi
14. [www.google.ru](http://www.google.ru)
15. [www. Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz) sayti
16. [www.trif.uz](http://www.trif.uz) sayti

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4 bet
ASOSIY QISM.....	7 bet
OAVda ma'naviyat va ma'rifat.....	7 bet
Televideniyeining ma'rifiy vazifasi.....	12 bet
Televideniyeining madaniy vazifasi.....	18 bet
XULOSA.....	26 bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	29 bet

# *ILOVALAR*